

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь**

**CHAQALOQLARDA LIQILDOQNI PARVARISH QILISHNING  
O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Axmadova L.A. Tojimurodov M.**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz shahar Farovon massivi

43-b uy [ahmadovalola24@gmail.com](mailto:ahmadovalola24@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola chaqaloqlarda liqildoqni parvarish qilishning ilmiy asoslangan jihatlarini tahlil qiladi. Liqildoqning anatomo-fiziologik xususiyatlari, uning bosh suyaklari va miya rivojlanishidagi o'rni, shuningdek, gigiyenik va profilaktik parvarish tamoyillari ko'rib chiqiladi. Maqolada ota-onalar va pediatrlar uchun liqildoqni parvarishlashda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shuningdek, liqildoqning o'lchami, elastikligi va yopilish vaqtining patologik holatlari haqida ma'lumotlar keltirilib, diagnostika va nazoratning ahamiyati tahlil etilgan. Maqola liqildoqni parvarishlash bo'yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarni yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** liqaldoq, chaqaloq parvarishi, bosh suyaklari, anatomiya, fiziologiya, miya rivojlanishi, gigiyena, pediatriya, patologik holatlar, diagnostika.

**ОСОБЕННОСТИ УХОДА ЗА РОДНИЧКОМ У МЛАДЕНЦЕВ**

**Ахмадова Л.А. Таджимуродов М.**

Термезский университет экономики и сервиса, Фаровонский

массив, город Термез

дом 43-б [ahmadovalola24@gmail.com](mailto:ahmadovalola24@gmail.com)

**Аннотация.** Данная статья посвящена научному анализу особенностей ухода за родничком у младенцев. Рассматриваются анатомо-физиологические характеристики родничка, его роль в развитии костей черепа и мозга, а также основные принципы гигиенического и профилактического ухода. В статье представлены рекомендации для родителей и педиатров по предотвращению возможных ошибок в уходе за родничком. Кроме того, обсуждаются патологические состояния,

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь**

связанные с размером, эластичностью и сроками закрытия родничка, подчеркивается значимость диагностики и мониторинга. Статья направлена на освещение современных научных подходов к уходу за родничком.

**Ключевые слова:** родничок, уход за младенцем, кости черепа, анатомия, физиология, развитие мозга, гигиена, педиатрия, патологические состояния, диагностика.

**SPECIFIC ASPECTS OF CARE OF CHILDREN'S CHILDREN**

**Akhmadova L.A. Tojimurodov M.**

**Termez University of Economics and Service, Termez city, Faravan  
massif**

**43-b ahmadovaola24@gmail.com**

Abstract. This article is devoted to the scientific analysis of the features of fontanelle care in infants. The anatomical and physiological characteristics of the fontanelle, its role in the development of the bones of the skull and brain, as well as the basic principles of hygienic and preventive care are considered. The article provides recommendations for parents and pediatricians on preventing possible errors in fontanelle care. In addition, pathological conditions associated with the size, elasticity and timing of fontanelle closure are discussed, emphasizing

Key words: fontanelle, infant care, skull bones, anatomy, physiology, brain development, hygiene, pediatrics, pathological conditions, diagnostics.

**KIRISH / ВВЕДЕНИЕ**

Chaqaloq bosh suyagidagi liqildoq (fontanelle) – inson organizmida tabiiy moslashuvchanlikni ta'minlovchi noyob tuzilmalardan biri bo'lib, u yangi tug'ilgan chaqaloqning bosh suyagi va miya rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. Anatomik jihatdan, liqildoq bosh suyagi tog'aylari orasida joylashgan biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, uning asosiy vazifalari miyaning himoyasi, tug'ilish jarayonida bosh suyagi segmentlarining moslashuvchanligini ta'minlash va miya hajmining o'sishi uchun bo'shliq yaratishdir [1: P. 46-49].

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ikki asosiy liqildoq kuzatiladi: old (frontal) va orqa (okskipital). Old liqildoqning hajmi odatda 2–3 sm bo'lib, uning to'liq yopilishi 12–18 oylik davrda kuzatiladi. Orqa liqildoq esa kichikroq bo'lib, taxminan 2–3 oylikda yopiladi. Liqaldoqning o'lchami yoki yopilishdagi kechikish patologik holatlarning, jumladan, gidrosefaliya yoki raxit kasalligining belgisi bo'lishi mumkin [2: P. 145-159].

Fiziologik nuqtai nazaridan, liqaldoqning ochiq bo'lishi miyaning dastlabki 12 oy ichida taxminan 80% ga kengayishiga imkon beradi [3: P.210-233]. Shu sababli, liqaldoqning anatomo-fiziologik xususiyatlari chaqaloqning sog'ligi va rivojlanishini baholashda muhim diagnostik ahamiyatga ega. Bundan tashqari, liqaldoqning yumshoqligi, pulsatsiyasi yoki shishishi kabi xususiyatlar neonatolog va pediatrlar uchun birlamchi tashxis qo'yishda asosiy ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Mazkur maqolada izlanishlarimiz yordamida chaqaloqlarda liqaldoqning anatomiya va fiziologiyasini, uning bosh suyagi va miya rivojlanishidagi o'rnini tahlil qilish bilan birga, ota-onalar va sog'liqni saqlash mutaxassislari uchun gigiyenik va profilaktik tavsiyalarni taqdim etishni maqsad qilgan. Shuningdek, maqolada liqaldoqni parvarish qilishda keng tarqalgan xatolarni aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni yoritishni maqsad qildik.

### ADABIYOTLAR TAHLILI/ ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД

Chaqaloqlardagi liqaldoqlarning ahamiyati hamda ularning rivojlanish hamda o'sish bosqichlarini tasviflashdagi jihatlarini o'rganish nafaqat butun jahon tibbiyat olimlari, balki mahalliy tibbiyat olimlarining ham e'tiboridan chetda qolmadi. Jumladan: **J. Dechant** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, chaqaloqlarda bosh suyagi rivojlanishi va liqaldoqning o'sish jarayonini tahlil qilib, liqaldoqning dinamik harakati va suyaklanish jarayonini chuqr o'rgangan bo'lsa [4: P. 52-57], **D. Paladini** tadqiqotlari esa Daun sindromli homilalardagi kattalashgan liqaldoq hajmini ultratovush yordamida aniqlash usullari va uning klinik ahamiyatiga urg'u beradi [5: P. 101-105]. Bundan tashqari **A. Agrawal** liqaldoqdagi epidermoid kistlarning paydo bo'lishi va ularning neyroquirurgik tahlilini o'rganib chiqgan [6: P. 29-34].

Bundan tashqari chaqaloqlardagi liqaldoqning rivojlanish hamda parvarishlash masalasi rus olimlarining diqqatidan chetda qolmadi. Jumladan,

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь**

**Y. P. Nikolayev** o‘z ilmiy izlanishini liqildoqning yopilish vaqtini bilan miya rivojlanishi orasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari miya kengayishi va bosh suyagi segmentlarining moslashuvchanligi o‘rtasidagi fiziologik mexanizmlarni o‘rganishga bag‘ishlagan [7: C. 67-73]. **V. M. Sorokin** esa gidrosefaliya va liqildoq hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, liqildoqning kattalashishi intrakranial bosim oshganligini ko‘rsatadi [8: C.115-118]. **I. S. Korobkov** yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda tug‘ilishdan keyingi dastlabki uch oy ichida liqildoq shakli o‘zgarishining sog‘lik bilan bog‘liq xususiyatlarini o‘rganib chiqgan [9: C. 102-105].

O‘zbek olimlarining liqildoq anatomiyasi va rivojlanishi bo‘yicha chuqur tadqiqotlari yetarlicha keng emas. Biroq, Toshkent pediatriya instituti va Respublika neonatologiya markazi tomonidan olib borilgan ishlarda chaqaloqlar sog‘lig‘ini baholashda liqildoqning klinik ko‘rsatkich sifatidagi ahamiyati ta’kidlangan. Ayniqsa, raxit va gidrosefaliya kabi kasalliklarni diagnostikasi uchun liqildoqning o‘lchami va shakli bo‘yicha kuzatuvlar qimmatli ma’lumotlar beradi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR/ РЕЗУЛЬТАТЫ И  
ОБСУЖДЕНИЕ**

**Liqaldoqning tuzilishi va funksiyasi:** chaqaloqning bosh suyagi yetti suyak plastinkasidan iborat bo‘lib, ular orasidagi bo‘shliqlar liqaldoq deb ataladi. Liqaldoq chaqaloq hayotining dastlabki oylarida o‘ziga xos anatomo-fiziologik tuzilishga ega bo‘lib, bu chaqaloqning sog‘lom rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Old va orqa liqaldoq joylashuvi:** old liqaldoq (fonticulus anterior): Chaqaloq boshining peshona qismida joylashgan bo‘lib, u eng katta va muhim liqaldoqdir. O‘lchami odatda 2–3 sm bo‘lib, tug‘ilganidan boshlab 18–24 oy ichida yopiladi. Orqa liqaldoq (fonticulus posterior): Boshning ensa qismida joylashgan kichikroq liqaldoqdir. Bu liqaldoq odatda 2–3 oy ichida yopiladi.

**Asosiy funksiyalari:** suyaklar harakatchanligi – tug‘ruq jarayonida bosh suyaklarining qisilishi va harakatchanligini ta’minlaydi, bu esa chaqaloqning tug‘ilish yo‘lidan osonroq o‘tishini kafolatlaydi. Miya hajmining tez o‘sishiga moslashish uchun bosh suyagining o‘zgarishlariga imkon yaratadi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

**Diagnostika uchun indikator:** liqildoqning holati (yassiligi, shishganligi yoki cho'kish darajasi) chaqaloqning sog'ligi haqida muhim diagnostik ma'lumotlar beradi.

**Liqaldoqni parvarish** qilishdagi asosiy talablar: chaqaloq boshini to'g'ri tutish va asrash; liqaldoq nozik va himoyasiz bo'lganligi sababli, chaqaloqning boshini tutishda yumshoq va ehtiyyotkor bo'lish muhimdir. Har qanday yuzaki bosim miya to'qimalariga zarar yetkazishi mumkin. Har qanday og'ir bosimdan yoki nojo'ya teginishlardan saqlanish chaqaloqning sog'gom rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir.

## XULOSA/ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Liqaldoq – bu chaqaloq bosh suyagidagi muhim anatomo-fiziologik tuzilma bo'lib, u tug'ruq jarayonida bosh suyaklarining moslashuvchanligini ta'minlash, miya hajmining intensiv o'sishi uchun zarur muhitni yaratish va turli patologiyalarni diagnostika qilishda muhim indikator sifatida xizmat qiladi. Ilmiy manbalarga ko'ra, liqaldoqning holati bolaning umumiyligi rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning o'lchami, yopilish vaqtiga va strukturasidagi o'zgarishlar bir qator kasalliklarning, xususan gidrosefaliya va raxitning ilk belgilari sifatida qaralishi mumkin.

Mazkur maqolada liqaldoqning joylashuvi, funktsional xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari keng qamrovli tahlil qilindi. Shuningdek, liqaldoq parvarishida gigiyenik qoidalar, ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar va keng tarqalgan xatolarning oldini olish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvlar o'r ganildi. Xususan, ota-onalarning liqaldoq yuzasiga nojo'ya bosim yoki noto'g'ri manipulyatsiyalarni amalga oshirish xavfidan xabardorligi va bu bo'yicha ma'lum tajribaga ega bo'lishi bolaning hayot sifati va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Liqaldoqning rivojlanishi va parvarishi bo'yicha milliy va xalqaro ilmiy yondashuvlarni chuqur o'r ganish ushbu mavzuning klinik va pediatriyadagi ahamiyatini yana-da oshiradi. Jumladan, Rossiya tadqiqotchilari (Korobkov, 2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar yangi tug'ilgan chaqaloqlarda liqaldoqning dinamik rivojlanishini tizimli kuzatish orqali uning fiziologik normalarini belgilash imkoniyatini yaratgan. Shu bilan birga, xalqaro pediatriya jamiyatining izlanishlari liqaldoqning diagnostik ahamiyatini

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь**

kengroq yoritib, chaqaloqlarda bosh ichki bosim kabi kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va oldini olish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Mazkur tadqiqot liqildoq rivojlanishining anatomo-fiziologik va klinik jihatlarini yoritib, ota-onalar va tibbiyot xodimlariga chaqaloq bosh suyagi holatini nazorat qilish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy ko'rsatmalarini taqdim etadi. Kelgusida liqildoqning rivojlanish dinamikasini yanada kengroq miqyosda tahlil qilish va uning kasalliklar diagnostikasidagi rolini chuqurroq o'rghanish pediatriya sohasidagi dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI/ ИСПОЛЬЗОВАННАЯ  
ЛИТЕРАТУРА**

1. Standring S. Gray's Anatomy: The Anatomical Basis of Clinical Practice, Elsevier. – 2020. – P. 46-49
2. Smith J., Brown P., Taylor R. Fontanelles and Their Clinical Significance in Pediatric Health. Pediatrics Journal, 112(3), 2018. – P. 145–158.
3. Dekker L., van der Meer R., Vries H. Cranial Growth Patterns in Neonates: The Role of the Fontanelle. Neurodevelopmental Studies, 34(2), 2019. – P. 210–223.
4. Dechant J., Smith R. L., Becker J. P. Development of the Cranial Base in Infants: An Overview of Fontanelle Anatomy and Growth. Journal of Craniofacial Genetics and Developmental Biology, 1998. – P. 52-57.
5. Paladini D., Volpe P. Sonographic Evaluation of the Fetal Fontanelle: Clinical Significance. Ultrasound in Obstetrics and Gynecology, 2007. – P. 101-105.
6. Agrawal A., Bharadwaj A. Intracranial Pressure and Fontanelle Distension in Neonates. Neurosurgery Quarterly, 2007. – P. 29-34.
7. Николаев Ю. П. Особенности развития родничка у детей. Архив педиатрии России, 1987. – С. 67-73.
8. Сорокин В. М. Измерение родничка и оценка риска гидроцефалии у новорожденных. Архив педиатрии России, 1993. – С. 115-118.
9. Коробков И. С. Динамика развития родничка у новорожденных. Российский Центр Медицинских Исследований, 2015. – С. 102-105.